




**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING
YANGI O‘ZBEKISTON
RIVOJIGA TA’SIRI**

Xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiyasi to'plami

21 IYUN

2023





**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YANGI O'ZBEKISTON
RIVOJIGA TA'SIRI**

**ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗВИТИЕ
НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE DEVELOPMENT
OF NEW UZBEKISTAN**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami



JUNE 21, 2023
KOKAND UNIVERSITY

"O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublika Prezidentining 5847-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuklarini amaliyotga joriy etish yo'li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya'ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e'tirof etilishiga xizmat qilishdir. Shu va boshqa tegishli farmonlarda va qarorlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirish maqsadida 2023 yil 21-iyun kuni Qo'qon universiteti "Raqamli texnologiyalar va matematika" kafedrası "Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri" mavzusidagi xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plamini e'lon qiladi



MAS'UL MUHARRIR

Zahidov G'ofurjon Erkinovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIRIYAT HAY'ATI

G'ulomov Saidahrur Saidahmedovich – iqtisodiyot fanlari doktori, akademik;

Ahmedov Durbek Quدراتillayevich - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Mahmudov Nosir Mahmudovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Butaboyev Muhammadjon - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Islamov Anvar Ashirkulovich - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent;

Ruziev Shohrusbek Ravshan o'g'li - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mulaydinov Farxod Murotovich – Qo'qon universiteti, Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrası mudiri

Texnik muharrir – Solidjonov Dilyorjon Zoirjon o'g'li



Ta'lim sifati yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili / Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami. Kokand university, 2023 yil 21 iyun, - «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2023.

© Matn. Mualliflar, 2023.

© Kokand university, 2023.

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», original maket, 2023.

18	KITOB VA KITOBXONLIK – INSON MA'NAVIYATINING KO'ZGUSI - Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li, Nematova Guljahon Shuxratjon qizi	83-85
19	TA'LIM SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI - Batirov Behzod Barotovich	86-88
20	ELEKTRON DARSLIKLAR YARATISH TEXNOLOGIYALARI - Xoldarboyev Rahimjon Axmatdjanovich, Abduvaxobova Robiyaxon Abdusamat qizi	89-91
21	INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI - Nasirova Shaira Narmuradovna, Yodgorov G'ayrat Ro'ziyevich, Raximov Nodirbek Sharif o'g'li	92-94
22	OLIIY TA'LIMDA ELEKTRON TA'LIM RESURLARINI FOYDADANISHNING AHAMIYATI - Nasirova Shaira Narmuradovna	95-96
23	ELEKTRON TA'LIM RESURLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI - Qo'chqorova Surmaxon Suvonovna, Yodgorov G'ayrat Ro'ziyevich, Nasirova Shaira Narmuradovna	97-99
24	TA'LIMGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH TIZIMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI - Yodgorov G'ayrat Ro'ziyevich, Qo'chqorova Surmaxon Suvonovna, Nasirova Shaira Narmuradovna	100-102
25	MATEMATIKA DARSLARINI TASHKILLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH - Azimova Toyibaxon Elmurodjon qizi	103-104
26	ТЕКИСЛИҚДА БЕРИЛГАН ЭЛЛИПСЛАР МИНКОВСКИЙ АЙИРМАСИ - Жалолхон Нуритдинов Турсунбой ўғли	105-113
27	TEACHING PHYSICS BASED ON MODERN TECHNOLOGIES - Adashaliyeva Feruzabonu	114-116
28	TA'LIM VA TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH - Kamolaxon Oripova Erkinjon qizi	117-120
29	ZAMONAVIY YOSHLAR QADRIYATLARI VA JAMIYAT BOSHQARUVI - Mulyadinov Farhod Murotovich, Keldiboyeva Zumradxon Mirolim qizi	121-127
30	TA'LIM VA TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BOLALARNING SOG'LIG'IGA ZARAR YETKAZUVCHI AXBOROTLARDAN HIMOYA QILISH - SH. F. Ulug'xo'jayeva	128-132
31	BOG'LIQSIZ TASODIFIY MIQDORLAR YIG'INDISINING XARAKTRISTIK FUNKSIYASI - Jovliyev Aziz Ismanqul o'g'li	133-134
32	ZAMONAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA VR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI - G'aniyeva Shaxrizod Nurmaxamadovna	135-137
33	TA'LIM VA TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING MUAMMO VA YICHIMLARI - Dilfuza Muydinova	138-141
34	MATEMATIK MODELLARNING TIBBIYOT SOHASIDAGI BA'ZI QO'LLANILISHI - Eshtemirov Eshtemir Salim O'g'li, Abdurashidov Nuriddin G'iyosiddin O'g'li	142-148
35	МАКТАВГАЧА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYLARDAN FOYDALANIB SAMARALI MASHG'ULOT O'TISHNING AVFZALIKLARI - Yo'ldashev Axrorjon	149-150
36	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ КУРСА "ЧИСЛОВОЕ И ПРОГРАММНОЕ УПРАВЛЕНИЕ" - О.Э. Кушматов	151
37	TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI - Siddiqov Ilhomjon Meliqo'ziyevich	152-155

OLIY TA'LIMDA ELEKTRON TA'LIM RESURLARINI FOYDADANISHNING AHAMIYATI

Nasirova Shaira Narmuradovna – NDPI, professor

Annotasiya: Ushbu maqolada oliy ta'limda elektron ta'lim resurslarini foydadanishning ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim mazmuni va ko'lamiga o'zgarishlar kiritdi. Elektron ta'lim resurslaridan foydalanish ta'lim jarayoni uchun katta imkoniyatlarni ochadi. Ular nafaqat ta'lim tizimi, balki butun jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi ishlar samaradorligini ta'minlay oladi.

Kalit so'zlar: elektron, texnologiya, ta'lim, resurs, raqamli, kompyuter.

So'nggi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida va uni axborotlashtirishda ham keng ko'lamli va shiddatli islohatlar amalga oshirilmoqda. Bu islohatlarga asos bo'lgan qator qonun hujjatlari ham ishlab chiqilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 avgustdagi "2022-2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-357-son qarorida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasida Davlat dasturida ta'lim jarayoniga raqamli va innovatsion texnologiyalarni, raqamli ta'lim resurslari, multimedia vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini zamonaviy turdagi o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, raqamli va keng formatli telekommunikatsiya aloqa vositalari hamda Internet tizimini yanada rivojlantirish zarurligi asosiy vazifalardan biri deb olingan. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim mazmuni va ko'lamiga o'zgarishlar kiritdi.

Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish borasida O'zbekistonda ham ko'plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish choratadbirlari" to'g'risidagi PQ-4851-son qarorida "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlari va u bilan bog'liq jarayonlar belgilab berildi[1]. Mazkur me'yoriy hujjatlar doirasida Respublika ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashni yangi usul va vositalar yordamida tashkil etish, masofadan turib o'qitish va kompyuterlashtirilgan anjumanlar o'tkazishga erishish, raqamli ta'lim platformalarini yaratish va ularni o'quv-tarbiya jarayonida qo'llashga qaratilgan tadbirlar, ta'limni isloh qilish bo'yicha nufuzli loyihalar, ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Oliy ta'lim tizimi dars jarayonlarida elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanish asosan yangi mavzuni bayon qilishda, takrorlash va umumlashtirish darslarida, yakuniy sharhli mashg'ulotlarda va shunga o'xshash darslar turlarida kutilgan natijani beradi. Ma'ruza davomida

taqdimot dasturlari orqali yaratilgan slayd-filmlardan foydalanish darsni an'anaviy usuldan uzoqlashtiradi, ma'lumotlarning dinamikligini, ko'rinishini, yuqori darajasini ta'minlaydi, o'rganilayotgan masalaga va umuman fanga talabning qiziqishini paydo qiladi. Darsga tayyorgarlik ko'rishda pedagog va talaba uchun elektron darsliklar, internet ma'lumotlaridan foydalaniladi, didaktik materiallar, o'quv qo'llanmalar yaratiladi. Ma'ruza mazmuni va materialning taqdimoti talabalarning tayyorgarlik darajasiga qarab farqlanadi. Taqdimotni yaratishda uni yaratish maqsadi haqida unutmazlik kerak. Buning uchun ma'lum hajmdagi taqdimotni yaratish kerak, chunki ko'proq slaydlarning vizual diapazoni charchoqni keltirib chiqaradi, o'quvchini o'rganilayotgan materialning mohiyatidan chalg'itadi. Tushuntirish bilan birga bo'lmagan "qo'shimcha" slaydlar bo'lmasligi kerak. Mazuga aloqador taqdimotga kiritiladigan so'z ma'nolariga ko'ra tanlanishi, ulardan eng maqbullarigina kiritilishi kerak. Bunda albatta, talabning bilim va tajribasidan kelib chiqqan holda yondashiladi. Taqdimotlarda matnli ma'lumotlar o'rnini diagrammalar, rasmlar, chizmalar, video parchalari egallashi kerak. Matnlardan iloji boricha kamroq, faqat xabarning asosiy fikrlari shakli ifodasi uchun foydalanish kerak. Elektron axborot ta'lim resurslarilari vositalaridan foydalanish ma'ruzalarni o'qishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi. Biroq, u puxta o'ylangan bo'lishi va o'qitish usullarini o'zgartirish bilan birga bo'lishi kerak. Multimediya texnologiyalaridan foydalangan holda ma'ruzani tashkil etish uchun, birinchidan, ular qanday imkoniyatlarni taqdim etishini bilish, ikkinchidan, ulardan oqilona foydalana olish maqsadga muvofiq. Bu taqdimotlarni tayyorlash bosqichi ko'p vaqtni talab qiladi, doimiy takomillashtirishni nazarda tutmasa ham, bugungi kunda kompyuter vositalari dars jarayonini takomillashtirishning eng keng imkoniyatlarini ifodalaydi hamda o'qitishning usul va metodlarni yanada rivojlantirish istiqbollari va yo'nalishlarini belgilaydi. Zamonaviy elektron axborot ta'lim resurslarilarining imkoniyatlari keng, ulardan foydalanish ta'lim jarayoni uchun katta imkoniyatlarni ochadi. Ular nafaqat ta'lim tizimi, balki butun jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi ishlar samaradorligini ta'minlay oladi.

Xulosa qilib aytganda, o'qitishda raqamli innovatsion texnologiyalarni qo'llash ma'lumotlardan tezkor foydalanish, o'quv materialini mazmunini ochishda audio va video taqdimotlarning o'zaro muvofiqlikda qo'llanilishi, talabalar bilim saviyalarini muntazam nazorat qilib borish va h.k.lar kabi qator afzalliklarga ega. Elektron ta'lim resurslaridan foydalanish ta'lim jarayoni uchun katta imkoniyatlar ochadi. Ular nafaqat ta'lim tizimi, balki butun jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi ishlar samaradorligini ta'minlay oladi. Shu bilan birga, ta'lim oluvchilar bilish faoliyatini faollashtirib, bilim va ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirishda nazariy tushunchalarni idrok etishning ko'rgazmalilik darajasini oshiradi hamda ko'nikma va malaka kompetensiyalarini oson egallashlariga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-4851-son Qarori.